

TURIZM SANOATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SMART TURIZM PLATFORMALARINING SAMARADORLIGI

O‘roqova Difuza Bahriddinovna

Buxoro davlat universiteti, turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası i.f.f.d., dotsent
d.b.o‘roqova@buxdu.uz

Annotatsiya: Turizm sohasida raqamli texnologiyalar va smart turizm platformalari turizm industriyasining raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Soha vakillari onlayn xizmatlar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, turistlar sonini ko‘paytirish, iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash va turizm brendlarini mustahkamlashlari mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarning to‘g‘ri qo‘llanishi mijozlarga yuqori darajadagi qulaylik va xavfsizlikni ta’minlab, turizm sohasining barqaror rivojlanishiga keng yo‘l ochadi. O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda turizm sohasini jadal rivojlantirish, uni iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish borasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish va “aqlli” (smart) turizm platformalarini rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar ham qabul qilinib, amaliyotga tadbiq etilmoqda. Ushbu maqolada mazkur islohotlarning huquqiy asosi, amaliy qo‘llanilishi va kutilyotgan samarasi haqida fikr boradi.

Kalit so‘zlar: *Hududiy turizm, raqamli texnologiyalar, turizm, turistik xizmatlar, onlayn bron qilish, mobil ilovalar, raqamlashtirish, raqamli faoliyat infratuzilmasi, O‘zbekiston turizm siyosati.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПЛАТФОРМ УМНОГО ТУРИЗМА В ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНДУСТРИИ

Урокова Дилфуза Бахриддиновна

Бухарский государственный университет, кафедра туризма и гостиничного хозяйства, доктор философии по экономике, доцент

d.b.o‘roqova@buxdu.uz

Аннотация: В сфере туризма цифровые технологии и интеллектуальные туристические платформы становятся решающим фактором обеспечения конкурентоспособности туристической отрасли. Используя онлайн-сервисы, мобильные приложения и искусственный интеллект, представители отрасли

могут улучшить качество продукции и услуг, увеличить количество туристов, повысить экономическую эффективность и укрепить туристические бренды. В то же время грамотное использование современных технологий обеспечит клиентам высокий уровень комфорта и безопасности, проложив путь к устойчивому развитию туристической отрасли. В последние годы в Республике Узбекистан реализуются масштабные реформы по ускоренному развитию сферы туризма и превращению ее в одно из приоритетных направлений экономики. В частности, приняты и реализуются документы, направленные на внедрение цифровых технологий и развитие платформ «умного» туризма. В статье рассматриваются правовая основа, практическое применение и ожидаемое влияние этих реформ.

Ключевые слова: *Региональный туризм, цифровые технологии, туризм, туристические услуги, онлайн-бронирование, мобильные приложения, цифровизация, инфраструктура цифровой деятельности, туристическая политика Узбекистана.*

EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND SMART TOURISM PLATFORMS IN THE TOURISM INDUSTRY

Oroкова Dилфуза Бахриддиновна

*Bukhara State University, Department of Tourism and Hotel Management, PhD,
Associate Professor*

d.b.o'roqova@buxdu.uz

Abstract: In the tourism sector, digital technologies and smart tourism platforms are becoming a decisive factor in ensuring the competitiveness of the tourism industry. Through the effective use of online services, mobile applications and artificial intelligence, industry representatives can improve the quality of products and services, increase the number of tourists, improve economic efficiency and strengthen tourism brands. At the same time, the correct use of modern technologies provides customers with a high level of comfort and security, paving the way for the sustainable development of the tourism industry. In recent years, the Republic of Uzbekistan has been implementing large-scale reforms aimed at the rapid development of the tourism sector, turning it into one of the priority areas of the economy. In particular, documents aimed at the introduction of digital technologies and the development of “smart” tourism platforms have been adopted and are being put into practice. This article discusses the legal basis, practical application and expected results of these reforms.

Keywords: *Regional tourism, digital technologies, tourism, tourist services, online booking, mobile applications, digitalization, digital infrastructure, tourism policy of Uzbekistan.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ–4095-sonli qarori va 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli Farmoni, O‘zbekiston turizm sanoatini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashda muhim hujjatlar hisoblanadi. Bu qarorlar, turizm tarmog‘ining jadal rivojlanishi, xizmat ko‘rsatish sifatining yuksaltirilishi hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni belgilaydi. Ushbu hujjatlar, ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari, onlayn xizmatlar va elektron turizm platformalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning turizm sanoatini raqamlashtirishga bo‘lgan e‘tibori, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida davom etmoqda. Ushbu strategiya, iqtisodiyotning barcha sohalarini, shu jumladan turizmni, raqamli texnologiyalar bilan boyitish maqsadida aniq maqsadlar belgilaydi. Bu hujjatning doimiy amaliyoti turizm sohasida raqamli yechimlarni, masalan, “aqlli” boshqaruv tizimlari, onlayn bronlash, elektron to‘lovlar, virtual gidlar va interaktiv xizmatlarni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo‘lmoqda. Bu innovatsiyalar, nafaqat turizmni jadal rivojlantirish, balki turizm xizmatlarini xalqaro darajada raqobatbardosh qilishni ta‘minlaydi.

Turizm sanoatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali, nafaqat turistik xizmatlar sifatini oshirish, balki turizm infratuzilmasining samarali boshqarilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri 2019-yilda qabul qilingan) turizm industriyasiga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish va turistik xavfsizlikni ta‘minlashni maqsad qilib qo‘yadi. Bu qonun, turizm sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni oshirishda muhim hujjat hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali, turizm kompaniyalari xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirishi, vaqtni tejashi va foydalanuvchi ma‘lumotlarini tezkor va samarali tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va “aqlli shahar” konsepsiyasi, shahar infratuzilmasini va madaniy muhitni isloh qilishga xizmat qiladi. “Aqlli shaharlar”da raqamli yechimlar yordamida turistlarga mahalliy aholi bilan muloqot qilish, turistik joylar haqida ma‘lumot olish, transport tizimlaridan samarali foydalanish va boshqa xizmatlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Sayohatni rejalashtirish va mahalliy til bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun sinxron tarjima qiluvchi audio dasturlar va interaktiv tizimlar yordamida turistlarga qulayliklar yaratish mumkin. Shu bilan birga, turizm sanoatida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, balki butun turizm ekotizimini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar orqali turistlar uchun

personal yondashuvlar, multimedia kontentlar va “aqlli” boshqaruv tizimlari yaratish mumkin. Bu, turizmni yanada raqobatbardosh qilish va sohani yangi bosqichga olib chiqish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadi, turizmning iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish va uni barqaror rivojlantirishdir. Turizmning raqamli ekotizimga aylanishi, nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi, xususiy sektor va davlat idoralari uchun ham foydalidir. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘lishni ta‘minlaydi va turizmning uzoq muddatli rivojlanishini kafolatlaydi.

2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-sonli Farmon, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash orqali turizm sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Bu strategiya, nafaqat turizmni rivojlantirish, balki barcha sohalarda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashni maqsad qilgan. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga tatbiq etish, ushbu sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi va O‘zbekistonni jahon turizm bozorida muvaffaqiyatli o‘rin tutishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Umuman olganda, turizmning raqamli ekotizimda rivojlanishi nafaqat sayyohlik xizmatlarini ko‘rsatish usulini, balki butun shahar infratuzilmasi va madaniy muhitni ham keng qamrovli isloh etishni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar orqali personal yondashuv, multimedia kontentlar va joriy etilayotgan “aqlli shaharlar” konsepsiyasi turizm sanoatini yangi bosqichga olib chiqib, sohada uzoq muddatli istiqbolli yutuqlarni kafolatlashga xizmat qiladi. O‘zlarining ishlarida jamoalarning oldingi tajribasi va texnologik beqarorlikning yangi xizmatlarni ishlab chiqishdagi salbiy ta‘sirini o‘rganadilar. Ular, mijozlar ishtirokida yangi xizmatlar rivojlanishini tahlil qilgan holda, ilgari ishlangan xizmatlarning muvaffaqiyatiga ta‘sir ko‘rsatadigan omillarni ta‘kidlashadi¹. Aqlli turizm texnologiyalarining sayyohlar tajribasiga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganib, zamonaviy turizmning raqamli innovatsiyalar orqali qanday rivojlanayotganini ko‘rsatadilar. Ushbu tadqiqotda sayyohlar tajribasini yaxshilashda texnologiyaning ahamiyati ta‘kidlanadi². Turizm sohasidagi talabni tushunishning muhimligini va turizm manzillarining muvaffaqiyatini belgilovchi omillarni o‘rganadilar qirg‘oq va dengiz manzillari uchun mijozlar talabining motivatsiyasi va segmentatsiyasini tahlil qilgan³. Ruminiyaning ekoturizm manzillaridagi sayohatchilar profilini, ularning mamnuniyatini va qaytib kelish niyatlarini tahlil qilgan. Ular turistlarning mamnuniyatini oshirish va qayta tashriflarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan omillarni aniqlaydilar⁴. Langkavi oroliga tashrif buyurgan turistlarning

¹ Carbonell, P.; Rodríguez-Escudero, A.I. The negative effect of team’s prior experience and technological turbulence on newservice development projects with customer involvement. *Eur. J. Mark.* 2015, 49, 278–301. [CrossRef] 2022, 14, 3048. [CrossRef]

² Zhang, Y.; Sotiriadis, M.; Shen, S. Investigating the Impact of Smart Tourism Technologies on Tourists’ Experiences. *Sustainability*

³ Carvache-Franco, W.; Carvache-Franco, M.; Carvache-Franco, O.; Hernández-Lara, A.B. Motivation, and segmentation of the demand for coastal and marine destinations. *Tour. Manag. Perspect.* 2020, 34, 100661. [CrossRef]

⁴ Constantin, C.P.; Ispas, A.; Candrea, A.N. Examining the Relationships between Visitors Profile, Satisfaction and

mamnuniyatini o'rganish orqali, sayyohlar tajribasi bilan bog'liq asosiy elementlarni ko'rib chiqadilar. Ularning tadqiqoti, turizm bo'yicha xizmatlarni yaxshilash uchun turistlarning ehtiyojlarini qanday qondirish kerakligini ko'rsatadi (Aliman et al., 2016)⁵. Stankov va Gretzel (2020) turizm 4.0 texnologiyalari va turistlar tajribasi haqida inson-markazli dizayn nuqtai nazaridan muhokama yuritadilar. Bu, sayyohlar uchun yangi raqamli texnologiyalarni ishlab chiqishda qanday yondashuvlar qo'llanilishi kerakligini ta'kidlaydi⁶. Song va boshqalar (2019) turizm sohasida talabni prognoz qilish bo'yicha tadqiqotlar rivojlanishini tahlil qilib, turizm sohasining kelajagi va talabni aniqlashda ilg'or metodlarni ko'rsatadilar⁷. Gunter va Onder (2016) Google Analytics vositalari yordamida shaharga kelgan sayyohlar sonini prognoz qilishni o'rganadilar. Bu ish, sayyohlar oqimini boshqarish va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishda qanday vositalar qo'llanilishi mumkinligini tushuntiradi⁸. Bulchand-Gidumal (2022) sun'iy intellektning turizm va mehmondo'stlik sohasiga ta'sirini o'rganib, bu texnologiyaning yangi imkoniyatlarini va kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlarini ta'kidlaydi⁹. Ruiz-Meza va Montoya-Torres (2022) turistik sayohat dizayni muammosiga oid tizimli adabiyotlar sharhini taklif etadilar, shu bilan birga, kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan tadqiqotlarni belgilaydilar¹⁰. Sarkar va boshqalar (2023) turizm sohasidagi tavsiya tizimlariga oid tadqiqotlarni tahlil qilib, kelajakda bu sohadagi innovatsiyalarni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida muhokama yuritadilar¹¹. Yang va Chew (2021) mehmondo'stlikda xizmat ko'rsatuvchi robotlar modellari haqida tizimli adabiyotlar sharhini taqdim etadilar. Ular robot texnologiyalarining mehmondo'stlik sohasida qanday foydalanilishi mumkinligini va uning samaradorligini ko'rib chiqadilar¹². Samara va boshqalar (2020) sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarning turizmda qo'llanilishi haqida batafsil tahlil qilib, kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlarini belgilaydilar¹³. Bu sharhlar turizm va mehmondo'stlik sohasidagi texnologiyalar, sun'iy intellekt, innovatsiyalar va turizm talabining rivojlanishiga oid muhim tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Ular sohaning turli jihatlarini o'rganishga yordam beradi va keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratadi. O'zbek olimlarining raqamli texnologiyalar orqali personal

Revisit Intentions: Evidence from Romanian Ecotourism Destinations. *Land* 2022,11, 186. [CrossRef]

5 Aliman, N.K.; Hashim, M.S.; Wahid, S.M.; Harudin, S. Tourists' Satisfaction with a Destination: An Investigation on Visitors to Langkawi Island. *Int. J. Mark. Stud.* 2016,8, 173–188. [CrossRef]

6 Stankov, U.; Gretzel, U. Tourism 4.0 technologies and tourist experiences: A human-centered design perspective. *Inf. Technol.Tour.* 2020,22, 477–488. [CrossRef]

7 Song, H.; Qiu, R.T.; Park, J. A Review of Research on Tourism Demand Forecasting. *Ann. Tour. Res.* 2019,75, 338–362. [CrossRef]

8 Gunter, U.; Onder, I. Forecasting city arrivals with Google analytics. *Ann. Tour. Res.* 2016,61, 199–212. [CrossRef]

9 Bulchand-Gidumal, J. Impact of Artificial Intelligence in Travel, Tourism, and Hospitality. In *Handbook of e-Tourism*; Springer:Berlin/Heidelberg, Germany, 2022; ISBN 978-3-030-48651-8.

10 Ruiz-Meza, J.; Montoya-Torres, J.R. A systematic literature review for the tourist trip design problem: Extensions, solution techniques and future research lines. *Oper. Res. Perspect.* 2022,9, 100228. [CrossRef]

11 Sarkar, J.L.; Majumder, A.; Panigrahi, C.R.; Roy, S.; Pati, B. Tourism recommendation system: A survey and future research directions. *Multimed. Tools Appl.* 2023,82, 8983–9027. [CrossRef]

12 Yang, J.; Chew, E. A Systematic Review for Service Humanoid Robotics Model in Hospitality. *Int. J. of Soc. Robot.* 2021, 13,1397–1410. [CrossRef]

13 Samara, D.; Ioannis, M.; Vassilios, P. Artificial Intelligence and Big Data in Tourism: A Systematic Literature Review. *J. Hosp. Tour.Tech.* 2020, 11, 343–367. [CrossRef]

yondashuv, multimedia kontentlar va joriy etilayotgan “aqlli shaharlar” konsepsiyasi turizm sanoatini yangi bosqichga olib chiqib, sohada uzoq muddatli istiqbolli yutuqlarni ushbu maqolalarga alohida sharh yozishgan. Ruziev S., Rasulov H., va Yusupov A. lar tomonidan mehmondo‘stlik va turizm sanoatidagi boshqaruv soxalarida gender xilma-xilligi tadqiqot qilingan. Ushbu maqola mehmondo‘stlik va turizm sanoatidagi boshqaruv sohalarida gender tengligini o‘rganadi. Tadqiqotda, turizm sektori boshqaruv tizimlarida gender diskriminatsiyasi va uning rivojlanishga ta’siri muhokama qilinadi. Gender xilma-xilligi biznesdagi samaradorlikni oshirishga qanday ta’sir qilishi mumkinligi haqida fikrlar keltirilgan¹⁴. M.G. Nazrullaevning “Mechanisms for the development and management of innovative activity in Uzbekistan” maqolasida O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va boshqarish mexanizmlari haqida so‘z boradi. Muallif, mamlakatda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv metodlarini o‘rganadi. Shuningdek, texnologik yangiliklarni joriy etishdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rsatilgan¹⁵. Yusupov Abbosxon Aliyevichning “Methodological principles of using human resources in the activity of small business subjects” nomli maqolasi kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish metodologiyasiga bag‘ishlangan. Muallif kichik biznesning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan inson resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanishning metodologik asoslarini tahlil qiladi¹⁶. U. Omonjonning ish bilarmonlik va mice turizmni ahamiyati nomli maqolasida ish bilarmonlik (MICE - Meetings, Incentives, Conferences, Events) turizmining o‘rni va uning turizm sohasidagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Ishbilarmon turizm sohasida iqtisodiy ta’siri, imkoniyatlari va soha o‘sishiga olib keluvchi omillar muhokama qilinadi¹⁷. Yuldasheva Nilufarxon A’zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li va Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘lining sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi nomli maqolasida sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi haqida, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning global iqtisodiyotga ta’siri, hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga integratsiyasi masalalari tahlil qilinadi¹⁸. Qodirjon o‘g‘li, B.T. va Nazarali o‘g‘li, M. S. larning “Fiscal policy as the primary tool to affect the strength of the capital markets” nomli maqolasida fiskal siyosatning kapital bozorlariga ta’siri tahlil qilingan. Mualliflar, davlatning iqtisodiy siyosati orqali kapital bozorlarini boshqarish va ularga

14 Ruziev, S., Rasulov, H., & Yusupov, A. (2022). MEHMONDO'STLIK VA TURIZM SANOATIDAGI BOSHQARUV SOXALARIDA GENDER XILMA-XILLIGI. PEDAGOGSjurnali, 2(2), 156-173.

15 Nazrullaevna, M. G. (2021). Mechanisms for the development and management of innovative activity in Uzbekistan. SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH, 77(4), 15-20

16 Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS SUBJECTS. Intent Research Scientific Journal, 2(3), 182-187. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsi/article/view/67>

17 Omonjon, U. (2023). ISH BILARMONLIK VA MICE TURIZMNI AXAMYATI. QO 'QON UNIVERSITETIXABARNOMASI, 249-250.

18 Yuldasheva Nilufarxon A’zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o‘g‘li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o‘g‘li. (2023). Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 73-75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>

ijobiy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari haqida bahs yuritadi¹⁹. Xulosa ushbu maqolalar umumiy ravishda iqtisodiyot, turizm, innovatsiyalar, kichik biznes, sun'iy intellekt va fiskal siyosat kabi sohalarda O'zbekistonning rivojlanishini, yangi tendensiyalarni va ularga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qiladi. Ular o'zlarining zamonaviy metodologik yondashuvlari va masalalarga oid fikrlari bilan muhim ahamiyatga ega. Har bir maqola o'z sohasiga oid muhim yangiliklar va rivojlanish yo'llarini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Turizm sanoatida raqamli texnologiyalar va smart turizm platformalarining samaradorligini tahlil qilishda mantiqiy va taqqoslash usullari muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy tahlil orqali, texnologiyalarning integratsiyasi, samaradorlikni oshirish va jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilgan asosiy mexanizmlar aniqlanadi. Masalan, internet, mobil ilovalar va sun'iy intellekt yordamida xizmatlarning shaxsiylashtirilishi va samaradorligi oshadi. Tizimning yaxlitligi orqali barcha xizmatlar bir platformada birlashtiriladi, bu esa foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi va jarayonlarni tezlashtiradi.

Bu usul yordamida, texnologiyalarning samaradorligini o'lchashda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yoki muammolarni aniqlashga imkon beradi. Kuzatish natijalari, kelgusida raqamli texnologiyalarni optimallashtirish va yangi yechimlar joriy etishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tanlanma kuzatish metodologiyasi turizm sanoatidagi raqamli transformatsiyaning samaradorligini baholashda katta yordam beradi va texnologiyalarning foydaliligini yaxshilash yo'lida strategiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda turizm sanoati tez rivojlanayotgan va global miqyosda katta o'zgarishlar yuz berayotgan soha bo'lib, raqamli texnologiyalar va smart turizm platformalarining joriy etilishi bu o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirib, sektorda samaradorlikni oshirishga katta yordam bermoqda. Turizm sanoatida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash va yangi smart platformalar yaratish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash, jarayonlarni soddalashtirish va foydalanuvchilarga individual xizmatlar taqdim etish imkoniyatlari oshdi.

Biroq, ushbu o'zgarishlar va innovatsiyalarni samarali amalga oshirishda ba'zi muammolar ham yuzaga kelmoqda:

- Texnologik yangi yondashuvlar. Raqamli texnologiyalar, masalan, onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR), turizm xizmatlarini shaxsiylashtirishda va sayohatni rejalashtirishda foydalanuvchilarga katta qulayliklar yaratmoqda. Bu texnologiyalar yordamida

¹⁹ Qodirjon o'g'li, B. T., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). Fiscal policy as the primary tool to affect the strength of the capital markets. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 8, 32-35.

sayohatchilar o'z sayohatlarini internet orqali rejalashtirishi, onlayn mehmonxona rezervatsiyasi va transport xizmatlarini tanlashi mumkin. Shuningdek, mobil ilovalar orqali sayohatchilar har bir turistik joy haqida real vaqt ma'lumotlari olishadi. Smart turizm platformalari esa bu xizmatlarni bitta tizimda birlashtiradi va foydalanuvchiga qulay tarzda taqdim etadi.

- Samaradorlikni oshirish. Raqamli texnologiyalar turizm xizmatlarini soddalashtirishga yordam beradi. Masalan, onlayn tizimlar yordamida sayohat rejalashtirish jarayonida vaqt va mablag' tejash mumkin. Raqamli platformalar xizmatlarning tezligi, mavjudligi va sifatini oshiradi. Mijozlarga individual ehtiyojlarga mos xizmatlar ko'rsatish orqali ular uchun aniq va qoniqarli sayohat tajribasini yaratadi. Bu, o'z navbatida, turizm sanoatining umumiy samaradorligini oshiradi. Statistika ko'rsatishicha, onlayn bron qilish tizimlari orqali sayohatlar soni sezilarli darajada oshgan va bu raqamlar yil sayin yuqoriga ko'tarilmoqda.

- Tizimlar integratsiyasi va yagona platformalar. Raqamli texnologiyalarni turizm sanoatida muvaffaqiyatli qo'llash uchun tizimlar integratsiyasining muhimligi e'tiborga olinishi kerak. Smart turizm platformalari mehmonxona rezervatsiyasidan tortib, sayohatning barcha bosqichlarini qamrab olgan yagona tizim yaratishga imkon beradi. Boshqa sohalarda bu kabi tizimlar samarali ishlayotganini ko'rish mumkin, ammo turizmدا bu tizimlarni joriy qilishda ko'plab texnik va operatsion muammolar mavjud. Masalan, turizm xizmatlarining ko'pligi va xilma-xilligi, shuningdek, foydalanuvchi ma'lumotlarini xavfsizligi va himoya qilish masalalari dolzarb hisoblanadi.

- Mijozlar tajribasi. Turizm sanoatida mijozlar tajribasi katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar yordamida sayohatchilar o'z ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar olishadi. Biroq, ba'zida foydalanuvchilar uchun texnologik yechimlar murakkab bo'lishi yoki mavjud texnologiyalar bir-biri bilan integratsiya qilinmagan bo'lishi mumkin. Bu holat esa, mijozlar uchun murakkabliklar yaratishi va xizmatlar samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Turizm sanoatida raqamli texnologiyalar va smart turizm platformalari samaradorlikni oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Raqamli platformalar orqali mijozlarga individual xizmatlar taqdim etish, vaqtni tejash, va jarayonlarni soddalashtirish mumkin.

Bu xizmatlar o'z navbatida, sektorda raqobatni kuchaytiradi va kompaniyalarga yangi mijozlarni jalb qilish imkonini beradi. Biroq, turizm sanoatida raqamli transformatsiyani amalga oshirishda to'siqlar va muammolar ham mavjud. Ayniqsa, texnologiyalarni birlashtirishda va tizimlar o'rtasidagi integratsiyani amalga oshirishda ba'zi qiyinchiliklar mavjud.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin,

1. Texnologiyalarni integratsiyalash. Turizm sanoatida barcha xizmatlarni yagona platforma orqali integratsiya qilish zarur. Bu orqali mijozlar bir tizimda mehmonxona bron qilish, transportni rejalashtirish va turistik joylar haqida ma'lumot olish kabi barcha xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Bunda, foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga imkon beruvchi tizimlar yaratish kerak.

2. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish. Raqamli texnologiyalarni keng qo'llash bilan birga, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasi alohida e'tibor talab etadi. Bu borada kuchli himoya tizimlari va shaffof xavfsizlik protokollarini ishlab chiqish zarur.

3. Mijozlar tajribasini yanada shaxsiylashtirish. Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yordamida mijozlar uchun yanada shaxsiylashtirilgan xizmatlar taqdim etilishi kerak. Bu xizmatlar orqali foydalanuvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan sayohat rejalari va takliflar ishlab chiqilishi mumkin.

4. O'quv va rivojlantirish dasturlari. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun, xodimlarni o'qitish va ularning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu, ayniqsa, kichik va o'rta turizm bizneslari uchun muhimdir.

Turizm sanoatida raqamli texnologiyalar va smart platformalarning samaradorligini oshirish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash, vaqtni tejash va xarajatlarni kamaytirish mumkin. Ammo, bu jarayonda tizimlar integratsiyasini ta'minlash, xavfsizlikni kuchaytirish va mijozlar tajribasini yanada shaxsiylashtirish zarur. Yangi texnologiyalarni joriy etish, sektorda raqobatni kuchaytiradi va uzoq muddatda iqtisodiy o'sishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buhalis, D., & Law, R. (2008). Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet. *Tourism Management*, 29(4), 609–623.

2. Kotler, P. (2000). *Marketing Management*. Prentice Hall.

3. Lund, H. (2011). Renewable energy strategies for sustainable development. *Energy*, 36(2), 912–921.

4. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.

5. Урокова, Д., & Акрамова, Н. (2023). SCRUM: Гибкий подход к управлению проектами сфера туризма. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1)

6. Bahridinovna, U. D. (2021, November). Development of the Service Sector: A Comparative Analysis of National and Foreign Practices. In "Online-conferences" platform (pp. 222-228).

7. Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. (2024). The dynamics of tourism, economic growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan: an ARDL approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 14(6), 365-370.

8. Baxriddinova, O. D. (2023). Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikning mohiyati. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 16(2), 158-163.

9. Урокова, Д. Б., & Толипов, М. У. (2020). Факторы, влияющие на развитие туризма в Узбекистане. *Достижения науки и образования*, (3 (57)), 21-23.

10. Fatillovna, R. G., & Bahriddinova, U. D. (2021). The economic importance of national crafts in the development of tourism. *Academy*, (1 (64)), 52-54.

11. Fatillovna R. G., Bahriddinova U. D. The economic importance of national crafts in the development of tourism // *Academy*. – 2021. – №. 1 (64). – С. 52-54.

12. Bahriddinova U. D. Development trends service rendering in Uzbekistan.

13. Erdonov M. E., Sh M. J., Karimov J. A. Stages of rapid development of service enterprises in Uzbekistan // *Экономика и социум*. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 125-130.